



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-yanvar

VII-5-8-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **Tumanda “Reklama to‘g‘risida”gi qonun talablariga rioya etilayotganligi holatlarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagisi “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi 104-sonli qarori “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta‘minlash maqsadida tumandagi tadbirkorlik subyektlarining reklama va tashqi axborot matnlari tarqatish va ulardan foydalanishda davlat tili qoidalari rioya etilishi, shuningdek, Milliy tiklanish demokratik partiyasining deputatlik guruhi va tuman hokimi maslahatchisi tomonidan o‘tkazilgan reklamadan foydalanish holatlari yuzasidan axborotini inobatga olib, Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida Qonunnig 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining 5-sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

**1.** Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi J.Sarmanov, Milliy tiklanish demokratik partiyasi deputatlik guruhi a’zosi A.Irgashovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.Tuman hokimi maslahatchisi J.Sarmanovga:**

-tashqi reklama obyektlarida joylashtirilgan reklamalarning davlat tilida yuritilishi yuzasidan monitoring olib borsin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimiga ma’lumot kiritib borish;

-tumandagi korxona tashkilotlarda rasmiy idoraviy hujjatlar yuritilishida “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun talablariga qat’iy rioya etilishi yuzasidan tanqidiy o‘rganish olib borib tuman hokimiga ma’lumot kiritib bori vazifasi yuklatilsin.

**3. Reklama va tashqi axborot matnlari ishlab chiquvchi tadbirkorlik subyektlariga:**

-reklama vositalarining davlat tili meyorlarida yuritilishi va nashr etilishi yuzasidan mas’ul ekanliklari belgilansin;

-reklama va tashqi axborot matnlarini davlat tili meyoriga amalga qilinmagan holatda moliyaviy va ma’muriy jarimalarning qo’llanilishi yuzasidan ogohlantirilsin.

**4.** Tuman prokuraturasiga “Reklama to‘g‘risi”dagi qonunchilikni buzganlik uchun tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qonunchilikda belgilangan chora ko‘rish tavsiya etilsin.

**5.** Tuman hokimining 2024 yil 26 dekabrdagi 651-7-96-Q/24-sonli qaroriga muvofiq tuman ishchi guruhi tashqi axborot matnlarida davlat tili meyorlarining buzilishi holatlarini tanqidiy o‘rganib borish ishlarini doimiy tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

**6.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev), tuman hokimi o'rribosari (O.Shirinov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH